BOLALARDA UCHROVCHI ALLERGIK HASTALIKLARNI DAVOLASHDA SHIFOKOR DEONTOLOGIYASINING AHAMIYATI

Nizamov Qutbiddin Fatxullayevich – katta o‘qituvchi
Irsaliyeva Fotima Xusniddinovna – professor
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Shifokor deontologiyasi – shifokorning burchi va odobi haqidagi fan bo‘lib, shifokorlar, hamshiralar va kichik tibbiyot hodimlarining hatti – harakatini belgilaydigan mafkuraviy dasturilamaldir.

Deontologiya – yunoncha so‘z bo‘lib, “deon” burch va “logos” ma’lumot demakdir. Bu so‘z hayotga XIX asrning boshlarida ingliz faylasufi Isremiyey Bentamon tomonidan har bir insonning kasbiy burchi haqidagi fan sifatida kirib kelgan.

Shifokor deontologiyasi keng falsafiy tushuncha bo‘lib, bir qancha yo‘nalishlardan iborat:

Shifokor bilan bemor o‘rtasidagi munosabat

Shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o‘rtasidagi munosabat

Shifokorning hamkasblari, hamshiralar va kichik tibbiyot hodimlari bilan munosabati

Shifokor va bemorning davolash jarayonidagi huquqlari

Shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati

Ustoz va shogird munosabatlari

Shifokor faoliyatidagi xato va kamchiliklar va boshqalar

Yuqorida sanab o‘tilgan deontologiya yo‘nalishlari amaliyotda to‘g‘ri joriy qilinishi – shifokorning ongi, saviyasi, dunyoqarashi, bilim mezoni va qaysi jamiyatda yashayotgani bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shifokorlik kasbi o‘ta murakkab va shu bilan birga oliyjanob kasbdir. Uni egallayman degan inson bir qancha odamiylik fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak.

Shifokor so‘zining har bir harfiga ham urg‘u berib ko‘rsak, bu kasbga xos fazilatlarni anglab yetamiz.

Shifokor so‘zining “SH” harfi

Shirin suhanlikni, shijoatkorlikni, shafqatlilikni bildiradi. Bir Donodan: “Qaysi fazilat eng yaxshi fazilat sanaladi?”, - deb so‘rasalar, u “Kular yuzli, shirin so‘zli, xushmuomalali bo‘lish”,- deb javob bergan ekan. Shifokorda shu fazilatlar bo‘lmog‘i juda zarur. Bemorga eng birinchi davo bu shirin so‘z. Uning o‘rnini behisob dori – darmonlar ham bosa olmaydi. Deylik, unchalik og‘ir bo‘lmagan bemorga turli noyob dorilarni berib so‘zimizni aytmadik. Shunda bemor, shifokor yaxshi so‘z aytmayapti demak kasalim og‘ir ekan shekilli, degan hayolga borishi mumkin. Shu bois unda ruhiy bezovtalanish boshlanib, ahvoli og‘ilashish ehtimoli paydo bo‘lishi mumkin. Aksincha, agar bemorga dorilarni berish bilan birga, shirin va muloyim so‘zlab, ko‘nglini ko‘tarilsa, unda xatto tibbiyotga ma’lum bo‘lmagan ximoya kuchlari ishga tushib, uni tuzalib ketishi tezlashadi.

Shifokor so‘zining “I”harfi

Ilmli, ixlosli, irodali, har ishda ilg‘or, insonparvar, intizomli, iqtidorli bo‘lishni bildiradi. Shifokor shu hislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. U oliygohda olgan bilimini uni bitirgandan so‘ng ham doimo to‘ldirib borishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, insonlar o‘rtasida uchraydigan kasalliklarning soni o‘n mingdan, kasallik belgilarining soni yuz mingdan ziyod ekan. Bundan tashqari har yili dunyoda kasalliklarga qarshi minglab yangi dorilar ishlab chiqariladi. Bularni shifokorlik paytida turli adabiyotlar, jurnallar va boshqa ayrim manbalardan foydalanilgan holda o‘rganib borish darkor. Haqiqiy o‘z kasbini sevgan shifokor har bir ishni ixlos bilan boshlab, iroda bilan oxiriga yetkazadi.

Shifokor so‘zining “F” harfi

Fidoyilik, faxm-farosatni bildiradi. Insonning tabiati qiziq. Odamlar borki, birovning g‘am tashvishini, boshiga tushib turgan musibatni ko‘rib, zarracha ham pinagini buzmaydilar. Lekin, baxtimizga oramizda o‘zgalar uchun jonini fido etayotganlar ham ko‘p. Baxtsizni qutqaray deb, o‘zini suvga tashlaganlar, o‘tga urganlar ozmunchami, birovni dardini olay deb, o‘lim bilan yuzma-yuz kelgan shifo-

korlarning fidoyiliklari ham ana shunday jasoratlardan aslo qolishmaydi. Har qanday sharoitda ham bemor oldida turib, hech kimdan va hech qachon o‘z yordamini ayamaslik – fidoiy shifokorlar tabiatiga xosdir.

Shifokor so‘zining “O” harfi

Odoblilikni, oqillikni oliyjanoblikni bildiradi. Ahloq madaniyatining – inson madaniyatining tarkibiy ajralmas qismidir. Unga Odob saqlash qoidalari ya’ni muomala va muloza-mat normalari, xushmuomalalik, mehnatda va hayotda o‘z vaqtini tartibga sola bilish, imo- ishora va tana harakati qoidalariga amal qilish, so‘rashganda to‘g‘ri, ravshan gapira olish, o‘z fikrini qisqa va aniq ifodalash kiradi.

Shifokor so‘zining “K” harfi

Kamtarlikni bildiradi. Kamtarlik shifokorga xos hislatdir. Kamtar shaxs boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymaydi, o‘ziga bino qo‘yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, maqtanchoqlik qilmaydi, yutuqlardan esankiramaydi, mag‘lubiyatdan esa o‘zini yo‘qotmaydi.

Shifokor so‘zining “O” harfi

Orastalikni, ozodalikni bildiradi. Bemorni o‘rab turgan muhitxona shinam va osoyishta bo‘lishi kerak. Shifokor egniga ozoda dazmollangan oq halat, boshiga qalpoqcha, orasta kiyinishi bemorga yaxshi kayfiyat paydo qildiradi va o‘zi davolanayotgan joyga nisbatan hurmati, mehri oshadi.

Shifokor o‘z vazifasini bajarayotgan paytda xech qanday sun’iylikka va yasan –tusanga zeb berishi kerak emas. Zero, bemor shifokordan zeb-u ziynat emas, balki dardiga davo kutadi, xolos.

Shifokor so‘zining “R” harfi

Rahmdillikni, rostgo‘ylikni, reja asosida ish ko‘rishlikni bildiradi. Bu sifatlar ham albatta shifokorlarda bo‘lmog‘i lozim.

Mana muhtaram o‘quvchi biz siz bilan hozir bir jumla, oddiy bir “shifokor” so‘zini taxlilini ko‘rib chiqdik. Zero, “shifokor”lik kasbi juda ulug‘, insonparvar kasb. Insonni kasb emas, balki inson kasbni go‘zal qiladi. Oq halat burchga sadoqat, beg‘ubor fikr, doimo yordamga tayyor turish ifodasidir.

Mustaqil respublikamizning istiqboli uchun munosib mutaxassislarni tayyorlash oliy o‘quv yurtlari pedagoglari zimmasiga g‘oyatda sharafli, yuksak mas’uliyatni yuklaydi. Bu mas’uliyatni to‘la to‘kis xis qilgan holda talabalarni ma’naviy barkamol, ahloqan go‘zal qilib tarbiyalash to‘g‘risida faoliyat barchamizning burchimizdir. Chunki biz bo‘lg‘usi shifokorlarni- inson salomatligi posbonlarini tarbiyalaymiz.

Hozirgi kunda kasalliklar strukturasining asosini yuqumli kasalliklar balki surunkali kasalliklar egallagan. Ushbu kasalliklar kelib chiqishi ko‘pdan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishidagi jarayonlar bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda aholi orasidagi kasallanish strukturasi va o‘lim sabablarini asosini tashkil etuvchi eng ko‘p tarqalgan kasalliklar jumlasiga yurak qon-tomir, onkologik, neyro-endokrin, asab va allergik kasalliklar kiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda har bir bemorga individual yondoshish ulardagi kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish va ularni oldini olishga alohida e’tibor berish lozim. Shuning uchun ham hozirda vrach bilan bemor orasidagi munosabatga va ijtimoiy profilaktikaga hamda bemorlarni davolashda unga to‘la qonli bir shaxs sifatida qarash, e’tibor berish talab etiladi. Mana shu vazifalarni hal etishda vrach etikasi va tibbiyot deontologiyasini roli katta. Chunki ushbu fan shifokor bilan bemorning bir-biriga yaqinlashuviga, profilaktik faoliyatning yanada kengayishiga olib keladi.